

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqi

UDK: 336.1:658(575.1)

YULDOSHEVA GULNOZA ABDINABIYEVNA

**KORXONALAR FAOLIYATINI MOLIYAVIY MODELLASHTIRISHNI
OPTIMALLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini
olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich

iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent-2025

MUNDARIJA

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) 3

I-BOB. KORXONALARDA JARAYONLARNI MOLİYAVIY
MODELLASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI **Ошибка! Залкада не
определена.**

1.1-§. Korxonalarda moliyaviy modellashtirish tushunchasining mohiyati
Ошибка! Залкада не определена.

1.2-§. Korxonalar faoliyatini moliyaviy modellashtirish talablari va tamoyillari
Ошибка! Залкада не определена.

1.3-§. Korxonalar faoliyatini moliyaviy modellashtirishning asosiy bosqichlari
Ошибка! Залкада не определена.

BIRINCHI BOB BO‘YICHA XULOSALAR **Ошибка! Залкада не
определена.**

II BOB. KORXONALAR FAOLIYATINING NATIJALARINI MOLİYAVIY
MODELLASHTIRISH **Ошибка! Залкада не определена.**

2.1-§. O‘zbekiston korxonalarida moliyaviy modellashtirishda qo‘llanilayotgan
usullar tahlili **Ошибка! Залкада не определена.**

2.2-§. Mamlakat miqyosida korxonalar faoliyatini kredit olish imkoniyati va
moliyaviy barqarorlik salohiyatini modellashtirish **Ошибка! Залкада не
определена.**

2.3-§. Kredit liniyasiga ega bo‘lishning innovatsion rivojlanish, o‘shish va eksport
imkoniyatlariga ta’siri (WBES 2024 ma’lumotlari bo‘yicha tahlil) **Ошибка!**
Залкада не определена.

IKKINCHI BOB BO‘YICHA XULOSALAR **Ошибка! Залкада не
определена.**

III BOB. KORXONA FAOLIYATINI MOLİYAVIY MODELLASHTIRISHNI
RIVOJLANTIRISH UCHUN MUAMMOLAR VA ECHIMLAR **Ошибка!**
Залкада не определена.

3.1-§. Korxonalarda moliyaviy modellashtirishdagi muammolar **Ошибка!**
Залкада не определена.

3.2-§.Korxonalaridagi jarayonlarni moliyaviy modellashtirishni optimallashtirish
Ошибка! Залкада не определена.

3.3-§. Korxonalar faoliyatini moliyaviy modellashtirishni optimallashtirish zarurati va istiqbollari **Ошибка! Закладка не определена.**

UCHINCHI BOB BO‘YICHA XULOSALAR **Ошибка! Закладка не определена.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI **Ошибка! Закладка не определена.**

KIRISH (FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida korxonalar faoliyatini moliyaviy modellashtirishni optimallashtirish samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, tavakkalchiliklarni baholash, kapital oqimlarini boshqarish, rentabellikni ta'minlash hamda uzoq muddatli investitsiyaviy strategiyalarni shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy moliyaviy modellar ssenariyli tahlil, naqd pul oqimi prognozlari, narxlarning o'zgarishiga nisbatan sezgirlik tahlili va kapital strukturasi optimallashtirish orqali korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, CFA Institute'ning ta'kidlashicha: "Moliyaviy modellar biznes qarorlari uchun asos bo'ladi va moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha strategik yo'nalishlarni aniqlashda hal qiluvchi o'rin tutadi"¹. Bu esa moliya va boshqaruvni raqamli transformatsiyalash sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Jahonda korxonalar faoliyatini moliyaviy modellashtirishni optimallashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida: dinamik ssenariyli tahlil va stress-testlash modellarini joriy etish, sun'iy intellekt va mashinali o'rganish asosida moliyaviy prognozlarni aniqlash, raqamli platformalarda real-time (aynan hozir) modellashtirish muhitini yaratish, ESG omillarini hisobga olgan investitsiyaviy tahlilni integratsiyalash, shuningdek, moliyaviy qarorlarni qo'llab-quvvatlovchi vizualizatsiya va panel vositalarini takomillashtirish kabi yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tadqiqotlar moliyalashtirish jarayonlarini tezkor va aniq qarorlar bilan ta'minlash, kapital samaradorligini oshirish hamda tavakkalchiliklarni barqaror boshqarish imkonini yaratadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, jumladan, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar korxonalar uchun moliyaviy modellashtirish usullaridan keng foydalanish zarurligini yanada oshirmoqda. Zamonaviy iqtisodiy muhit yuqori darajadagi dinamizm va o'zgaruvchanlik bilan tavsiflanadi, bu esa korxonalarning moliyaviy faoliyatini samarali boshqarishda innovatsion moliyaviy modellardan foydalanishni taqozo etadi. «Tadbirkorlik

¹ <https://www.cfainstitute.org/en/research/foundation/2020/financial-modeling>

muhibiti, infratuzilma va mavjud resurslardan foydalanish darajasi ... tadbirkorlik rivoji holati yaxshilanishi uchun imtiyozli xizmatlar paketi kerak»². Biroq, korxonalarning moliyaviy rejalashtirish va xatarlarni boshqarish amaliyotida ilg'or moliyaviy modellardan to'liq va samarali foydalanish darajasi yetarli emas. Shu bois mavjud yondashuvlarni tizimli tahlil qilish va ularni O'zbekiston biznes muhitida samarali tatbiq etish masalasi bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PF-157-son "Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022-2026 - yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025 - yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 18-avgustdagi PQ-283-son "Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 21-maydagi PQ-4325-son "Davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ishtirok etayotgan tijorat banklarini restrukturizatsiya va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tarixiy jihatdan moliyaviy modellashtirish: L.Pachioli, I. Fisher, J.Burr Uilliams, H.Markowis, F.Modigliani, M. Miller, W. F. Sharp, F.Blak, M.Scholes va R.Merton kabi yetuk olimlar tomonidan yaratilgan nazariy va amaliy ishlanmalarga tayangan holda shakllangan.³

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори 01.05.2020 й. ПҚ-4702-сон "Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш тўғрисида" https://www.norma.uz/bizning_sharhlar/tadbirkorlar_uchun_imtiezlar_tabaqalashtiriladi?utm_source

³Пачоли Л. Трактат о счетах и записях. — Москва: Издательство «Юрайт», 2021. — 90 с. — (Антология мысли). — ISBN 978-5-534-07605-9; Fisher I. The Debt-Deflation Theory of Great Depressions. — Econometrica, 1933,

№ 1(4), pp. 337–357 (архивная копия от 8 января 2018 г. на Wayback Machine); Williams J. B. The Theory of Investment Value. — 1938; Modigliani F., Miller M. H. The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment. — American Economic Review, June 1958, pp. 261–297; см. также: Modigliani F., Miller M. H. Taxes and the Cost of Capital: A Correction. — American Economic Review, June 1963, pp. 433–443; Markowitz H. Modern Portfolio Theory. — Journal of Finance, 1952, Vol. 7, No. 1, pp. 77–91; Sharpe W. F. The Capital Asset Pricing Model: A “Multi-Beta” Interpretation. — In: Financial Decision Making Under Uncertainty. — Academic Press, 1977, pp. 127–135; Black F., Scholes M. The Pricing of Options and Corporate Liabilities. — Journal of Political Economy, 1973, Vol. 81, No. 3, pp. 637–654.